

SAYYOR QABUL: MUAMMO VA YeCHIM

Bugungi kunda mamlakatimizdagi har bir katta-kichik rahbarning asosiy vazifasi aholi orasiga kirib borish, ular bilan yuzma-yuz muloqot qilish, murojaatlarni tinglash, muammolarni o'rganish va fuqarolar tomonidan ko'tarilgan masalalarni joyida hal etishdir.Xuddi shu maqsadda Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev tuman aholisi uchun navbatdagi "sayyor qabul"ini o'tkazdi. Sayyor qabulda, tumandagi Prezident Xalq qabulxonasi mudiri, tuman sektorlari, mutasaddi idora va tashkilotlari rahbar va mas'ullari hamda shu tumanda istiqomat qiluvchi aholi ishtirok etdi. Aholi farovonligini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, yangi ish o'rirlari yaratish, mahallalardagi obodonlashtirish, qurilish, ta'mirlash ishlari, ichimlik suvi, elektr va gaz ta'minoti, yo'l qurilishi va shu kabi fuqarolarni qiyinab kelayotgan muammolarni bartaraf etishda, tumanda sezilarli va keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash lozim. Qabulga kelgan 50 dan ortiq fuqarolarni tuman hokimi va tegishliligi bo'yicha sektorlar hamda idora va tashkilotlar rahbarlari birma-bir qabul qilib, yuzma-yuz muloqotda bo'ldi. Fuqarolar murojaatlari tinglanib, qayd etib borildi. 13 nafar fuqaroning murojaati shu joyning o'zida ijobjiy yechimini topdi.

2025-01-21 14:53:39